



2021- yil yanvar-iyul oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 2577,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.





Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 278,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan oʼsish surʼati 109,5 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,2 % punktga kamayib, 10,8 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Qoʼngʼiroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 53,2 %, yoki 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 150,5 %), Qoraoʼzak tumani (ulushi 41,8 % yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 77,0 martaga koʼp), Taxiatosh (ulushi 39,6 %, yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 marta) ga toʼgʼri keldi.



2021- yil yanvar-iyul

53,2

Qoʼngʼiroq

41,8

Qoraoʼzak

39,6

Taxiatosh




QORAQALPOGʼISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **69,3 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **7,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etgan holda **1786,8 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxona
va mikrofirmalar, ulushi, % da**




Ma‘lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri 778,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 88,6 %, Mo‘ynoq tumani (153,8 mlrd. so‘m, ulushi 90,4 %), To‘rtko‘l (163,6 mlrd. so‘m, ulushi 69,3 %) va Qo‘ng‘iroq (90,4 mlrd. so‘m, ulushi 37,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,9 % ni tashkil etdi yoki 512,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 171,9 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 168,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2409,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 6,5 % va 93,5 % ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-iyul

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI



**2021- yilning yanvar-iyul oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2577,6	110,0	100,0
Nukus sh.	878,7	104,1	34,1
tumanlar:			
Amudaryo	134,0	129,8	5,2
Beruniy	116,3	113,6	4,5
Bo'zotov	39,7	104,6	1,5
Qorao'zak	82,4	188,1	3,2
Kegeyli	46,5	113,9	1,8
Qo'ng'irot	238,7	100,7	9,3
Qonliko'l	39,4	106,0	1,5
Mo'ynoq	170,1	100,3	6,6
Nukus	108,1	100,4	4,2
Taxiatosh	124,6	131,7	4,8
Taxtako'pir	51,6	101,6	2,0
To'rtko'l	236,2	120,5	9,2
Xo'jayli	86,6	100,9	3,4
Chimboy	56,7	139,3	2,2
Shumanay	59,5	111,1	2,3
Ellikqal'a	108,5	112,0	4,2

2021- yil yanvar-iyul

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

71,7 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurilishiga tegishli. Jami qurilish ishlarining 71,7 % i yoki **1848,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

72,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **202,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 72,7 % ni tashkil etdi.

65,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1176,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 65,8 % ni tashkil etdi



91,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **469,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 91,7 % ni tashkil etdi.

Maʼlumot uchun: **Yangi qurilish** – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat koʼrsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar-iyul

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,4 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,8 %** punktga kamayib, **65,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **9,5 %** punktga ko'payib, **29,3 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **23,1** % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,0** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,9** % (**7,0** % punktga ko'paydi) ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyul 2021- yil yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,4 %** punktga ko'paydi va **20,6 %** ni tashkil etdi. Qolgan **79,4 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,4 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar-iyul

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-iyul**


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2577,6	278,8	1786,8	512,0
Nukus sh.	878,7	52,7	778,5	47,5
tumanlar:				
Amudaryo	134,0	-	62,5	71,5
Beruniy	116,3	-	48,1	68,2
Bo'zotov	39,7	-	34,9	4,8
Qorao'zak	82,4	34,4	35,3	12,7
Kegeyli	46,5	6,1	23,3	17,1
Qo'ng'irot	238,7	127,1	90,4	21,2
Qonliko'l	39,4	0,1	20,2	19,1
Mo'ynoq	170,1	3,5	153,8	12,8
Nukus	108,1	0,1	68,0	40,0
Taxiatosh	124,6	49,3	59,5	15,8
Taxtako'pir	51,6	-	45,2	6,4
To'rtko'l	236,2	-	163,7	72,5
Xo'jayli	86,6	0,1	54,2	32,3
Chimboy	56,7	-	33,5	23,2
Shumanay	59,5	0,1	50,1	9,3
Ellikqal'a	108,5	5,3	65,6	37,6


2021- yil yanvar-iyul

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlaring respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 34,1 %, Qo'ng'iroq tumani -9,3 %, To'rko'l tumani – 9,2 % va Mo'ynoq tumani – 6,6 % ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-iyul

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-iyul

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**